

## QADRIYATLARIMIZNI ANGLATGUVCHE MILLIY LIBOSLARIMIZNING JAMIYATDAGI O'RNI

Mahmudova Mahliyo

Termiz Davlat Universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qadriyatlarimizni anglatuvchi o'zbek milliy liboslarining jozibadorligi, xalqimizning qadimgi yorqin va o'ziga xos asrlar davomida shakllanib kelgan va hozirgi kunda yoshlar hayotida tutgan muhim o'rni haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Libosning yaratilishi, milliy liboslar

### АННОТАЦИЯ

В этой статье вы можете получить информацию о привлекательности узбекских национальных костюмов, представляющих наши ценности, и о том важном месте, которое наша нация формировала на протяжении древних, ярких и неповторимых веков, и которое она занимает в жизни молодых людей сегодня.

**Ключевые слова:** Создание платья, национальная одежда

### ABSTRACT

In this article, you can get information about the attractiveness of the Uzbek national costumes, which represent our values, and the important place that our nation has been formed during the ancient, bright and unique centuries, and which it occupies in the lives of young people today.

**Key words:** Creation of dress, national dress

O'zbek xalq qadriyatlariyatlarni o'zida mujassam qilgan milliy liboslarimiz, xalqimizning an'analari urf-odatlari va etnik tarixini ochib berishga yordam beradi. Liboslar haqida gaplashadigan bo'lsak eng avvalo liboslarning yaratilish tarixiga nazar solishimiz darkor. Shunda bizda "Libosning hozirgi kungacha shakllanishiga nimalar asos bo'lgan? Libos nega kerak? Inson ehtiyoji uchunmi? Yoki insonlarga muhim bo'lgani uchunmi? " – degan savollar tug'iladi. Eng avvalo libos millatimiz ko'zgusi bo'lganligi, milliyligimizni anglatganligi uchun ham hozirgi kunda o'z o'rni bor. Liboslar insonni jinsini, harakterini va uni qanaqa millat vakili ekanligini anglatuvchi kichik vositatdir.

Tarixdan ma'lumki miloddan avvalgi V asrda biz liboslarni hayvon terilarida, daraxt barglari va po'stloqlaridan yaratilganini turli manbalarda ko'rganmiz. O'sha paytda aynan libos inson ehtiyojini qondirgan. Hozirgi kunga kelib esa kiyinish madaniyatini yuzaga chiqaryapti. Liboslar turli brendlar ostida yaratilayapti.

Millatimiz ko'zgusi bo'lgan liboslar - O'zbekistonimizning ming asrlar tarixini o'zida mujassam etgan. Bunda biz xalqimizning qadimgi davrda yaratilib hozirgi kunda targ'ib etiladigan, o'tmish va kelajakni zamon bilan hamnafas bo'lgan liboslarni ko'rishimiz mumkin. Milliy libos deganda eng avval ko'z oldimizda atlas, adres, zar to'nlar, chophon, do'ppi, zabugardon, tillaqoshlar keladi. Ma'naviyatimiz ko'zgusi bo'lgan liboslarimiz o'zgacha jozibadorligi bilan kishi e'tiborini jalb qiladi. Milliy matolarimiz XX asrdan boshlab Marg'ilonda atlas to'quvchi kosiblar tomonidan ishlab chiqrilgan. Ular qo'l mehnati bo'lgani uchun juda ham chiroyli bo'ladi. O'zbek atlaslari silliqligi, ranglarning jilosi, naqshlarining bir biriga uyg'unlashgani uchun inson e'tiborini jalb qiladi. Har bir inson oziga yoqqanini emas yarawganini kiymog'i lozim yani modani ortidan quvmaslik mentalitetga mos ravishda kiyinmoq lozim. Bejizga Payg'ambarimiz Sallolloxu Alayhi Va Sallam hadislarida "Inson kamtarlik bilan, odobi hayosi chegarasidan chiqmay maromida kiyinishni kerakligini" aytmaganlar. Manbaalarda ayttilishicha o'zlar ham kiyimlarni did bilan kiyinganlar.

Hozirgi kunda milliy liboslarimiz eksponat ko'rinishida xorijiy muzeylarda ham namoyish etilmoqda. Bu bizning yutug'imiz desak ham bo'ladi, Masalan, Rossiyadagi ko'plab muzeylarida, Nyu-yorkdagi Metropoliten muzeyida va Parijdagi Luvr muzeylarida o'z aksini topgan. Milliy liboslarimini xorijlik shaxslarning gardirobida va kolleksiyalarda ham uchratish mumkin.

Zamonaviy talqindagi milliy liboslarimiz jozibadorliga xalqimizga va boshqa millar xalqlariga maql kelishi liboslar taqdimoti orqali nomoyon bo'ladi va taniladi. Har bir libos to'liq bir kompazitsiyani tashkil etishi kerak. Masalan ayollar libosida albatta bosh kiyimlar (do'ppi, ro'mol, tillaqosh) taqinchoqlar (zebugardon, zanjir,




uzuklar, turli xil munchoqlar), oyoq kiyimlar (maxsi, kovush) lar bo‘lsa kompazitsiyani tugallangan holda ko‘rishimiz mumkin. Milliy liboslarimiz ayollarimiz ziynati.



Erkaklarda esa milliy libosimizning to‘liq kompazitsiyasini - bosh kiyim (do‘ppi), ustki kiyim( zar to‘n, chopon ), belbog‘, oyoq kiyim (maxsi , kalish )larda ko‘rishimiz mumkin.

Nega biz yoshlar moda ketidan quvamiz? Zamon bilan hamnafas bo‘lish yaxshi ammo har bir inson yoshiga, qomatiga mos bo‘lgan libos kiymog‘i lozim. O‘rta asrlarda liboslar insonlar haqida so‘zlagan. Masalan, Yevropada liboslarning rangi insonlarni mavqeyini belgilagan. Zodagon oilada vakillari qizil rangda, o‘rta hol oila vakili esa jigarrang va kulranglarda kiyinishgan. Biz qanaqa libos kiyishimizdan qat’iy nazar uning tarixini bilishimiz kerak.

O‘zbekistonga kelayotgan sayyohlar aholimizning yashash tarzi va albatta urf odati san’ati bilan qiziqqan holda kiyinish madaniyatini o‘rganishadi. O‘zbek milliy liboslari madaniy merosimizni yaqqol namoyon etadi. Bizning xalqimizning kiyinish madaniyati bilan ajralib turadi. Zamona viy o‘zbek ayoli imijini o‘zbek milliy libosida ko‘rishimiz mumkin. Men bo‘lajak dizayner sifatida milliy liboslarimizni zamona viylik bilan uyg‘unlashtirib yaratishni maqsad qilganman. Va buni amalga oshirishga harakat qilayapman. Va o‘z kolleksiyamni ya’ni “Ra’no gullar” nomli kolleksiyamni yaratdim. Bunda men turli xil matolardan foydalandim, unga mos bo‘lgan taqinchoqlar yasadim.







**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Libos tarixi .D.Rahmatullayeva, ILXodjayeva, F.Ataxanova.Toshkent - 2015
- 2.KOMPOZITSIYA ASOSLARI .«SAN'AT» JURNALI NASHRIYOTI TOSHKENT - 2005